

BOSHLANG'ICH TA'LIMNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN ZAMONAVIY METODLAR.

Nazarova Muxlisa Samadullayevna

Yakkabog' tumani Alaqarg'a MFY

27-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunda yurtimizdagi boshlang'ich talimni ahamiyati va ushbu jarayonda foydalanilayotgan zamonaviy metodlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Boshlang'ich ta'lim, munosabat, savodxonlik, islohot, inson, pedagog, zamonaviy metod, ilgor texnologiyalar.*

Boshlang'ich ta'lim barcha ta'limning asosiy poydevori hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi: bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim masalasi ko'plab xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida ta'lim olish har bir insonning huquqi ekani belgilab qo'yilgan. U davlatlarni barcha uchun bepul boshlang'ich ta'lim olishni ta'minlashga chaqiradi. 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya esa davlatning barcha uchun oliy ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga majburligi haqidagi qoidani o'zida mujassam etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyoda 262milliondan ziyod bola maktabga bormaydi, 617 millionga yaqin yosh avlod vakillari o'qish va oddiy hisoblash ko'nikmalariga ega emas. Ular qashshoqlik, diskriminatsiya, qurolli mojarolar, favqulodda holatlar va iqlim o'zgarishi oqibatlarini tufayli azob chekmoqda. Migratsiya hamda majburiy ko'chib yurish jarayonlari ham yosh avlodning ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida keng qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egalla-yotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Ma'lumki, ta'lim - tarbiya uzluksiz, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, pedagogik jarayonning

asoiy maqsadi barkamol inson shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.

Boshlang'ich ta'lim-bu har bir insonning maktabga qo'yadigan ilk qadamidir. Har bir inson borki, maktabga borib o'qishni, yozishni, sanashni, hisoblashni o'rganadi va ta'lim-tarbiya oladi. Shu boisdan maktabga bosayotgan ilk qadamimizdan biz boshlang'ich sinfga boramiz. Hozirgi vaqtda yurtimizda ta'lim tizimiga, ilm-fanga kuchli e'tibor qaratilmoqda. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich ta'limga e'tibor kuchli hisoblanadi. Sababi har bir kasbning ortida, har bir sohaning orqasida «Boshlang'ich ta'lim» turadi. Misol uchun: bir bola va bir qiz maktabga bordi deylik, ulardan so'rashimiz mumkin: «Sen katta bo'lsang kim bo'lmoqchisan?»-deb. Ulardan biri ya'ni o'g'il bola aytadiki: «Men katta bo'lsam shifokor bo'laman, odamlarni davolayman, ularga yaxshilik qilaman»-deydi. Qiz bola aytadiki: «Men katta bo'lsam o'qituvchi bo'laman, bolajonlarni o'qitaman, ularga ta'lim-tarbiya beraman, o'qishni va yozishni o'rgataman»-deydi. Bu ikkalasini ham gapidan ko'rinib turibdiki, o'qishga qiziqadi, bilimga chanqoq bo'lgisi keladi. Shu sababdan ham bularga boshlang'ich sinfdanoq yaxshi bilim berilishi lozim. Har bir inson boshlang'ich sinfda, avvalo harfni, sonni o'qishni o'rganadi, so'ngra ularni yozishni o'rganib oladi. Harflarni biriktirib so'zlar tuza boshlaydi, sonlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishni o'rganadi, demak sonlar orqali matematikani o'rganib oladi. Harflar orqali ona tilini va o'qishni o'rganadi. Orzusidagi kasbning egasi bo'lishi uchun ham o'qishni-yozishni bilishi kerak. Hech nimani bilmagan odam, savodsiz bo'lsa, o'qishni, yozishni bilmasa ertaga u odam kim bo'ladi? Qanday inson bo'ladi? Degan savolga javob berishimiz shart. Hozirgi vaqtda davlatimizda ta'lim-tarbiyaga e'tibor qaratilayotganligi shunga misoldir. Birinchi Prezidentimiz islom Karimov bekorga aytmaganlar: Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart»-deb. Sababi ertangi kunimiz, kelajagimiz biz yoshlarning qo'limizda. Birinchi Prezidentimiz bizga shunday ishonch bildirgan ekanlar, biz yoshlar ularning ishonchini albatta oqlashimiz kerak. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash uchun, ta'limni yanada rivojlantirish uchun keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanib, darslarni tashkil etish ta'limda yuqori sifat va samaradorlikka olib keladi. Boshlang'ich ta'lim tizimidagi innovatsion texnologiyalarning yo'nalishlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim mazmunini o'zlashtirishlariga innovatsion yondashish, boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol ta'lim metodlarini tanlash va amalda qo'llash orqali o'quvchilarning faolligini oshirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish xususiyatlari muayyan tavsifga egadir. Interfaol metodlari o'qituvchining oldindan bergan

topshiriq rejasi, yo'riqnomasi bo'yicha mustaqil bajariladi. Ularning natijalari ish oxirida tekshiriladi. O'quvchilar ishni mustaqil rejalashtiradilar, uni alohida operatsiyalarga ajratadilar, ularning bajarish izchilligini belgilaydilar, adabiyotlardan foydalanadilar, javob berishda o'qituvchining yordamisiz kerakli ko'rgazmali qurollarni tanlaydilar, darsda o'tkazilgan tajriba va amaliy ishlarni takrorlaydilar. Interfaol metodlar o'quvchilarning materialini o'rganishlari va javob berishlarida bilim manbai sifatida ko'rgazmali qurollardan foydalanish mustaqilligini oshiradi. Interfaol metodlar o'quvchilarning materialni o'rganishlari va javob berishlarida bilim manbai sifatida ko'rgazmali qurollardan foydalanish mustaqilligini oshiradi. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlar va ularning mustaqilligini rivojlantirish maqsadini ko'zlaydi. "Bilim olishda o'quvchilarning mustaqilligi qanchalik muvaffaqiyatli rivojlantirilsa, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlik qilishi murakkablashadi, ammo uning ijodi va tashabbusi shunchalik yaxshiroq, rivojlanadiki, pedagogik faoliyatidan to'laroq qanoat hosil qiladi"- deya ta'kidlaydi R.F.Safarova. Faqat talabni oshira borib, asta - sekin, interfaol metodlarning qo'llash tur-larini murakkablashtira borib o'quvchilarda bilim o'zlashtirish samaradorligini oshirish mumkin. O'quvchilar tafakkuri va bilimlarini amaliyotda qo'llashning kat ta mustaqilligi sinfdan - sinfga o'tgan sari amalga oshadi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar bir darsda uning qismlari mazmuniga qarab turli qo'llanilishi mumkin. Bunda ular demonstrasiya, amaliy ish va suhbat bilan almashinadi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning tafakkuri va malakalarini ko'p tomonlama rivojlantiradi, shuning uchun faqat birgina metod bilan cheklanib qolmasdan har xil metodlarni qo'llash o'rinli bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarda muloqot madaniyati o'sadi va guruh bilan ishlash malakalari rivojlantiriladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda:

- birinchidan, individual ta'lim jarayonini qulaylashtirishi, ta'lim maqsadlarining didaktik loyihalashda xizmat qilishi, uning natijalarini kafolatlashi;

- ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida "sub'yekt-sub'yekt" munosabatlarini to'g'ri yo'naltirishni ta'minlashi;

- uchinchidan, o'quvchi shaxsini gumanitar pedagogika samaralaridan bahramand bo'lishida ko'maklashishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil qilish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- birinchisi- shaxsning erkin fikrlashiga zamin yaratish, uning intellektuallik darajasini har tomonlama o'rganish, tashxislash;

- ikkinchisi- pedagoglar jamoasi tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligiga erishishni ta'minlash;

- uchinchisi- jamiyatda har tomonlama chuqur mulohaza yurituvchi, erkin shaxs, barkamol avlodni tarbiyalash muammosining yechimini topish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalansih orqali o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish natijasida har bir rejali o'quv jarayonining didaktik ta'minoti e'tiborga olinadi, tahsil oluvchi o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganini doimiy monitoring ishlab chiqiladi, ta'lim jarayonidagi muammolarning yechimini topishga harakat qilinadi. Mohir pedagog o'quv jarayonida tug'iladigan qiyinchiliklarni boshqalardan ko'ra yaxshiroq tushunadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy urf-odatlarimizga, qadriyatlarimizga, boy ma'naviyatimizni yuksaltirishga o'rgatmog'imiz kerak. Buyuk tariximizga nazar solsak, o'quvchilarni orasida qadimgi ota-bobolarimizga, ajdodlarimizga hurmat, izzat, mehr-muhabbat kabi munosabatda bo'lish, bir-birlari bilan do'stona aloqada, ahil inoq bo'lishlikni uqtirishimiz lozim. Ta'lim bilan bir qatorda tarbiya ham berishimiz shart. Sababi, et bilan tirnoqni ajratib bo'lmaganidek, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Irisbayeva M.N. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash. Ped.fan. bo'yicha fal. dok diss. – Samarqand 2020. – 131 b.

2. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalashgan pedagogikasi. – T.: "Ilm ziyo" 2009. –191b

3. Abdullaeva Q, Safarova R. va b. Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi // Boshlang'ich ta'limning asosiy yo'nalishlari– T., 2020.

4. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T., 2003. –280 b.

5. Hoshimova M. "Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat". –T.: TDIU, 2017-yil.